



VIRTUAL MULOQOT JANRLARI LINGVISTIK TADQIQOTLAR OBYEKTI SIFATIDA

Valiyev Elyorjon Ilhomjon o'g'li,
Qo'qon davlat universiteti tadqiqotchisi

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 12-yanvar 2026-yil
Tasdiqlandi: 15-yanvar 2026-yil
Jurnal soni: 17
Maqola raqami: 48
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1398>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

pochta, telegraf, faks, virtual muloqot,
internet, chat, elektron pochta, forum,
postlar, izoh, blog.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada nutqiy janrlarning tarixiy taraqqiyoti va ularning ijtimoiy ehtiyojlar bilan uzviy bog'liqligi yoritiladi. Maqolada an'anaviy nutqiy janrlarning shakllanishi, rivoji va ayrimlarining ijtimoiy ehtiyoj yo'qolishi natijasida arxaiklashuvi masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan internet va raqamli platformalarning rivoji natijasida yuzaga kelgan virtual muloqot shakllari hamda ular doirasida vujudga kelayotgan zamonaviy nutqiy janrlarning lingvistik xususiyatlari o'rganiladi. Maqolada virtual muloqot jarayonida yuzaga keladigan nutqiy janrlar va ularning lingvistik, stilistik hamda kommunikativ xususiyatlari tahlil qilinadi. Hozirgi davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet va mobil aloqa vositalarining keng tarqalishi natijasida virtual muloqot o'ziga xos alohida muloqot maydoni sifatida shakllandi. Virtual muloqotning yozma (chat, blog, forum), audio (internet qo'ng'iroqlari, audio xabarlar), video (Zoom, Google Meet, Instagram Live) va aralash multimediy shakllari mavjud bo'lib, har bir janr o'ziga xos verbal va nonverbal vositalarga ega, leksik va grammatik xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Maqola virtual muloqotdagi nutqiy janrlarni aniqlash, tasniflash va ularning kommunikativ vazifasini tushunishning ilmiy asoslarini beradi. Shu bilan birga, zamonaviy tilshunoslikda nutqiy janrlarni o'rganish nafaqat tilning strukturaviy xususiyatlarini, balki ularning ijtimoiy kontekst va madaniy rolini tahlil qilishni ham talab qilishini ko'rsatadi.

Kirish. Nutqiy janrlar davrlar osha ijtimoiy o'zgarishlar, ijtimoiy qarashlar hamda ilm-fan taraqqiyotining rivojlanishi bilan xalq hayotida an'anaviy nutqiy janrlar sifatida tarixiy ahamiyat kasb etdi. Inson aql-zakovati orqali yuzaga kelgan ilm-fan taraqqiyoti ijtimoiy davrni, shu bilan birga ushbu davr kishilarining ijtimoiy qarashlarini o'zgartirdi. Zamonaviy axborot vositalari va qurilmalari ijtimoiy muloqot imkoniyatlarini kengaytirdi. Ijtimoiy muloqot vositalarining turli tumanligi til til tizimida o'ziga xos nutqiy maqsadlarni ifodalovchi nutqiy janrlarni yuzaga keltirdi, shu orqali zamonaviy nutqiy janrlar turfa ko'rinishni oldi. Shu nuqtai-nazardan til tizimidagi nutqiy janrlar ijtimoiy ehtiyojlar mavjudligi yoki mavjud emasligi hisobiga yuzaga keluvchi va yo'qolib borishlik xususiyatiga ega nutqiy butunliklardir. Zero, til tizimida ijtimoiy jamiyat vakillari o'z ehtiyojlari tufayli yangi nutqiy janrlarni ishlab chiqadi va ijtimoiy ehtiyoj yo'qolishi bilan ularni muomaladan chiqaradi.

Adabiyotlar tahlili. Nutqiy janrlar nazariyasi XX asr tilshunosligida shakllangan bo'lib, u M.M.Baxtin, R.O.Yakobson, T.A. van Deyk, D.Xayms va boshqa olimlarning ishlari orqali rivojlangan. Baxtin nutqiy janrlarni ijtimoiy faoliyat mahsulati sifatida talqin qilgan bo'lib, ularning har biri muayyan kommunikativ vazifa, kompozitsion tuzilish va uslubiy xususiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, janrlar faqat matnlar majmui emas, balki ijtimoiy ehtiyoj, madaniy kontekst va tilning funksional imkoniyatlari bilan uzviy bog'liq kompleks tizimdir¹.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida nutqiy janrlar tadqiqoti tilshunoslik, kommunikatsiya va psixologiya sohalarini o'z ichiga olgan ko'p qirrali ilmiy yondashuv sifatida rivojlandi. Xususan, R.Yakobsonning kommunikativ funksiyalar nazariyasi nutqiy janrlarning funksional mohiyatini ochib beradi va ularning ijtimoiy kontekstdagi rolini tushunishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, D.Xayms va T.A. van Deykning ishlari nutqiy janrlar tahlili diskurs va kontekst bilan bog'liq holda amalga oshiriladi, ya'ni har bir janrning ijtimoiy vazifasi va muloqot sharoiti orqali o'rganish kerakligi ta'kidlanadi.

O'zbek tilshunosligida nutqiy janrlarni o'rganish so'nggi yillarda yanada faollashgan. R.Xalilova, N.Mahmudov, Sh.Safarov va A.Nurmonov kabi olimlar virtual muloqot, internet tilshunosligi va raqamli diskurs masalalarini chuqur tahlil qilgan². Ularning ishlari virtual

muloqotdagi nutqiy janrlarning shakllanishi, kommunikativ vazifasi, lingvistik va psixologik xususiyatlarini ochib beradi. Shu bilan birga, ular nutqiy janrlarni tasniflashda kontekstual va funksional yondashuvlarni qo'llash muhimligini ko'rsatadi.

Xorijiy tadqiqotlarda ham virtual muloqot va internet orqali amalga oshiriladigan kommunikatsiya keng yoritilgan. A.E.Jichkina, S.Herring va D.Crystal internet muloqoti, kompyuter vositasidagi kommunikatsiya va raqamli nutq janrlarini o'rganib, ular nutqiy janrlarning texnologik vositalar va ijtimoiy ehtiyojlar bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, virtual muloqotning yozma, audio, video va multimediy shakllaridagi o'ziga xos stilistik va lingvistik jihatlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratilgan³.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nutqiy janrlar ijtimoiy ehtiyoj, kommunikativ vazifa va texnologik vositalarning o'zaro bog'liqligi natijasida yuzaga keladi. Virtual muloqot esa nutqiy janrlarning yangi formatini yaratdi, u tezkorlik, interaktivlik va multimediy elementlari bilan ajralib turadi. Shu sababli, nutqiy janrlarni o'rganish nafaqat tilning strukturaviy va leksik xususiyatlarini aniqlash, balki ularning kommunikativ va madaniy kontekstdagi rolini tahlil qilishni ham talab qiladi.

Bundan tashqari, virtual muloqotning o'ziga xos xususiyatlari, jumladan yozma, audio, video va aralash multimediy shakllari, lingvistik vositalarning yangicha ishlatilishi, stilistik va pragmatik jihatlar ham nazariy tahlilning asosiy yo'nalishlariga kiradi. Shu jihatdan qaralganda, nutqiy janrlar va ularning virtual muloqotdagi shakllari zamonaviy tilshunoslik va kommunikatsiya tadqiqotlari uchun asosiy ilmiy muammo va rivojlanish maydonini tashkil qiladi.

Virtual muloqotning o'ziga xos xususiyatlari, undagi nutqiy janrlarning shakllanishi va rivoji masalalari xorijiy tadqiqotlarda ham keng yoritilgan. A.E.Jichkina, S.Herring, D.Crystal kabi olimlar internet muloqoti, kompyuter vositasidagi kommunikatsiya va raqamli nutq janrlarini tadqiq etgan⁴.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tavsifiy, qiyosiy-tahliliy va funksional metodlardan foydalanildi. Virtual muloqot shakllaridagi nutqiy janrlarni aniqlash va tasniflashda diskursiv tahlil usuli qo'llanildi. Shuningdek, internet platformalaridagi (Telegram,

¹ Бактин М. М. Речевые жанры и другие поздние работы. – М.: Наука, 1986. – 504 с.; Crystal D. Language and the Internet. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 304 p.; Барласов А. А. Интернет-коммуникация как объект лингвистического исследования // Вестник МГУ. Серия 9: Филология. – 2015. – №3. – С. 45–58.

² Халилова Р. Виртуал нуткий мулоқотнинг ўзига хос тамойиллари // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – 2022. – №12. – Б. 123–128.; Mahmudov N. Til va muloqot masalalari. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 240 b.; Safarov Sh. Diskurs va nutqiy faoliyat. –

Toshkent: Fan, 2018. – 212 b.; Нурмонов А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 2016. – 368 б.

³ Халилова Р. Виртуал нуткий мулоқотнинг ўзига хос тамойиллари // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – 2022. – №12. – Б. 123–128.

⁴ Барласов А. А. Интернет-коммуникация как объект лингвистического исследования // Вестник МГУ. Серия 9: Филология. – 2015. – №3. – С. 45–58.

WhatsApp, Zoom va boshqalar) real kommunikativ materiallar kuzatilib, ularning lingvistik xususiyatlari tahlil qilindi.

Natijalar. Insoniyat tarixida xabar yetkazish ehtiyoji doimo mavjud bo'lgan. Qadimda bu ehtiyoj kishilar, hayvonlar va qushlar orqali amalga oshirilgan. Keyinchalik maxsus pochta tizimlari shakllanib, xabar almashish jarayoni markazlashgan holda tashkil etila boshlandi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot pochta xizmatini takomillashtirib, telegraf, telefon, faks kabi vositalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Internet va elektron pochta esa xabar almashish tizimini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi. Natijada tezkorlik, qulaylik va ommaviylik xabar almashish jarayonining asosiy belgilariga aylandi.

Yo'qolib borilayotgan va yangilanayotgan nutqiy janrlar tarkibida mazmunan xabar yetkazishni ifodalovchi nutqiy janrlar muayyan o'rin tutadi. Qadimda hukmdorlar, keyinchalik amaldorlar, dindorlar va tijoratchilar o'rtasida xabar almashish ehtiyoji kishilar va ot, it, kabutarlar kabi aqlli hayvonlar va qushlar xizmatidan foydalanish zaruriyatini tug'dirdi. Xabar yetkazish tizimining ijtimoiy ehtiyoji ortib borishi bilan maxsus pochta tizimi yaratilib, pochta markalari tushunchasi paydo bo'ldi. Keyinchalik ilmiy texnika, aviatsiyaning rivojlanishi pochta xizmati tizimiga ham o'ziga xos yengillik berdi. Ilmiy texnika yutug'i pochta bo'lmish elektronikaning rivojlanishi pochta tizimini yangi bosqichga olib chiqdi, pochta xizmatlari davlatlar tomonidan rasmiy ko'rinishga ega bo'la boshladi. (masalan, O'zbekiston pochta tizimi). Ilmiy texnika, ya'ni internet tarmog'ining rivoji esa pochta tizimiga elektron pochta (e-mail) shaklini taqdim etdi va shu orqali zamonaviy xabar berish va muloqot qilishning zamonaviy shakllari yuzaga keldi.


Aytish mumkinki, hozirgi kunda ilmiy texnika rivoji tufayli kundan kunga xabar almashish tizimlarining yangi formatlangan shakllari, elektron pochta shakli bilan birga tezkor xabar almashish tizimlari, ya'ni internet tarmog'i vositalari WhatsApp, Telegram, va h.k. an'anaviy xabar almashish vositalari, kishilar, hayvonlar va qushlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirdi va hozirda bu xizmatlar arxaik ko'rinishga o'tdi. Xabar almashishning pochta, telegraf, faks kabi turlari rasmiy yozma xabar nomina funksiyasini bajarmoqda. Shuni aytish kerakki, bizning zamonamizga kelib pochta xizmatining mazmuni ham o'zgardi, endi pochta xizmati nafaqat xabar yetkazish, balki turli jo'natmalar, xujjatlar, logistika xizmati kabi vazifalarni ham bajarmoqda.

21-asrga kelib, kishilarning uzog'ini yaqin qilish imkonini beruvchi texnik vositalarning yaratilishi bilan virtual imkoniyatlar, masofadan turib ishlash, aloqa qilish, muayyan xizmatlar ko'rsatishda qulayliklar yuzaga keldi.

Izohli lug'atlarda "virtual" so'zi lotincha "virtualis" so'zidan olingan bo'lib, "haqiqiyga yaqin, ammo aslida mavjud bo'lmagan" degan ma'noni anglatadi. Virtual so'zi kompyuter va texnologiya sohasida reallik, mashina, xotira, voqe'lik so'zlari bilan birga ishlatilganda, virtual reallik (VR) — kompyuter yordamida yaratilgan, haqiqiy dunyoga o'xshash, lekin aslida mavjud bo'lmagan, kompyuter orqali yaratilgan 3D muhit, virtual mashina — kompyuterda amaliy ravishda yaratilgan, lekin fizik jihatdan alohida uskuna bo'lmagan operatsion tizim yoki muhit, virtual xotira — fizik xotiradan tashqari kompyuterda yaratilgan qo'shimcha xotirani ifodalaydi. VR ko'zoynaklari esa virtual dunyoga sayohat qilish imkonini beradi. Virtual ofis/virtual tashkilot deyilganda real manzili bo'lmagan, onlaynda faoliyat yurituvchi korxonalar, virtual o'yinlar deyilganda esa kompyuter yoki mobil qurilmalardagi simulyatsiyalangan o'yinlar tushuniladi.

Virtual muloqot deyilganda esa internet orqali amalga oshadigan muloqot tushuniladi. Shu sababli virtual muloqot bilan bog'liq o'quv turlariga onlayn darslar, webinarlar, masofaviy ta'lim turlari kiradi. Bu muloqotning ham til, ham uslub, ham janr nuqtai-nazaridan o'ziga xos xususiyatlari bor. Bugunga kelib, virtual muloqot shakllarini tadqiq etish zamonaviy tilshunoslikning muhim masalalaridan biriga aylandi⁵. Sababi virtual muloqotning asosini o'ziga xos nutqiy maqsadni ko'zlovchi matniy tuzilishga ega nutqiy butunliklar tashkil qiladi.

Hozirgi kunda virtual muloqot zamonaviy texnologiyalar rivoji bilan paydo bo'lgan muloqot shakli bo'lib, ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasida internet orqali kompyuter, smartfon yoki boshqa raqamli uskunalar vositasida amalga oshiriladigan aloqadir. Bu muloqot yozma matn (chat), audio, yoki video shaklida bo'lishi mumkin.



Matnli muloqot qisqa va tez yozilish xususiyati bilan ajralib turadi. Bunga *WhatsApp, Messenger, SMS, forumi, blog, forumlardagi matnlarni* kiritish mumkin. Ushbu muloqot turida emodji va stikerlardan foydalanish imkoniyati mavjud Audio muloqot shakli esa og'zaki nutq orqali ifodalanuvchi, raqamlangan ovozi xabarlar yoki qo'ng'iroqlardan tashkil topadi, bunga misol qilib WhatsApp kabi internet tarmoqlari audio xabarlar, telefon qo'ng'iroqlari (VoIP: Viber, Skype), Clubhouse kabi audio ijtimoiy tarmoqlarni keltirish mumkin. Video muloqot esa vizual (ko'rish) va ovozi muloqot bilan birgalikda mimika va jismoniy harakatlar ishtirokida bo'lib o'tadi. Bunday muloqot turiga Zoom, Google Meet, Microsoft Teams, Skype video qo'ng'iroqlari, Instagram Live, TikTok Live kabilarni misol keltirish mumkin. Virtual muloqotning bir turi bo'lgan multimedia shakli aralash shakllarda, ya'ni matn, audio, video, stiker, fayllarni birlashtirgan holda yuzaga keladi. Masalan, Facebook Messenger (matn + gif + audio), Telegram guruh chatlari kabilar. Avtomatlashgan (botlar orqali) muloqotda jonli inson emas, balki dastur javob beradi, ma'lumot berish, xizmat ko'rsatish yoki savol-javob uchun mo'ljallangan. Masalan, Telegram botlar, veb-saytlardagi "Live Chat" xizmatlari, virtual yordamchilar (masalan, ChatGPT 😊) kabilar. Virtual muhitdagi muloqot (VR va AR asosida) esa 3D muhitda harakatlanishni nazarda tutadi, to'liq simulyatsiyalangan muhitni yaratadi. Masalan, VR Chat, Metaverse (Meta/Facebook), Google Earth VR, Mozilla Hubs. Virtual muloqot turlari insonlarning maqsadi, imkoniyati va platforma xususiyatlariga qarab shakllanadi.

Virtual muloqot jarayonida aniq nutqiy maqsad, kompozitsion tuzilish va uslubga ega xox verbal, hox noverbal vositalar orqali ifodalanuvchi har qanday nutqiy butunlikni nutqiy janr sifatida e'tirof etish lozim. Virtual muloqotning har bir janri o'ziga xos verbal va noverbal vositalarga egaligi, o'z leksikasi, grammatikasi, sintaktik shakllari mavjudligi bilan xarakterlanadi⁶.

Muhokama. So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internetning jadal rivojlanishi natijasida virtual muloqot deb ataluvchi yangi kommunikativ maydonlar yuzaga keldi. Virtual muloqot — bu ikki yoki undan ortiq shaxslar o'rtasida kompyuter, smartfon, planshet va boshqa raqamli vositalar orqali amalga oshiriladigan muloqot shakli bo'lib, u matn, audio, video yoki multimedia aralashmalaridan tashkil topadi. Bunday muloqot shakllari tezkorlik, qulaylik va interaktivlik bilan ajralib turadi, shu sababli zamonaviy jamiyatda an'anaviy xabar almashish vositalari — odam, hayvonlar, qushlar yoki pochta xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj kamaydi.

Virtual muloqotning shakllari va nutqiy janrlari juda turfa ko'rinishga ega:

1. **Matnli muloqot** — bu eng keng tarqalgan va tezkor shakl bo'lib, WhatsApp, Telegram, Messenger, SMS, forumlar va bloglarda amalga oshiriladi. Matnli muloqot qisqa ifodali bo'lishi bilan birga emodji, stiker va GIF kabi vizual vositalar orqali qo'shimcha ifoda kuchiga ega bo'ladi.

2. **Audio muloqot** — og'zaki nutq orqali ifodalanuvchi, raqamlangan ovozi xabarlar va qo'ng'iroqlarni o'z ichiga oladi. Bunga Viber, WhatsApp, Skype audio qo'ng'iroqlari va Clubhouse kabi audio platformalar misol bo'la oladi.

3. **Video muloqot** — vizual va ovozi muloqot bilan birgalikda mimika, imo-ishora va jismoniy harakatlarni qo'llash imkonini beradi. Misol tariqasida Zoom, Google Meet, Microsoft Teams, Instagram Live, TikTok Live platformalaridagi video qo'ng'iroqlarni keltirish mumkin.

⁵ Халилова Р. Виртуал нутқий мулоқотнинг ўзига хос тамойиллари // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. — 2022. — №12. — Б. 123–128.

⁶ Жичкина А. Е. Социально-психологические аспекты общения в Интернете [Электронный ресурс]. — Режим доступа:

4. **Multimediya aralash muloqot** – matn, audio, video, stiker va fayllarni birlashtirgan muloqot shakli. Masalan, Facebook Messenger yoki Telegram guruh chatlarida uchraydi.

5. **Avtomatlashgan muloqot** – botlar, virtual yordamchilar va dasturiy vositalar orqali amalga oshiriladi. Bu shaklda jonli inson emas, balki algoritmik tizim foydalanuvchining savoliga javob beradi. Masalan, Telegram botlar, veb-saytlardagi “Live Chat” xizmatlari va ChatGPT kabi sun’iy intellekt yordamida ishlaydigan tizimlar.

6. **Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR) muhitidagi muloqot** – VR Chat, Metaverse, Google Earth VR kabi platformalarda uchraydi. Bu shaklda muloqot 3D muhitda, noverbal vositalar (gestlar, harakatlar, mimika) bilan boyitilgan holda amalga oshadi.

Shuni ta’kidlash mumkinki, virtual muloqot nutqiy janrlari nafaqat texnologik imkoniyatlarga, balki insonlarning maqsadi, kommunikativ ehtiyoji va platformaning xususiyatlariga ham bog’liq. Har bir janrning o’ziga xos leksikasi, grammatikasi, sintaktik tuzilishi va stilistik xususiyatlari mavjud. Shu sababli virtual muloqotning o’rganilishi zamonaviy tilshunoslikda alohida ilmiy yo’nalish sifatida muhim ahamiyatga ega bo’lib, uning lingvistik, kommunikativ va psixologik jihatlarini tadqiq etish zarur.

Virtual muloqotning rivojlanishi zamonaviy jamiyatdagi kommunikativ jarayonlarni tubdan o’zgartirdi. Avvalgi davrlarda xabar almashish asosan shaxsiy uchrashuvlar, pochta, telegraf va telefon orqali amalga oshirilgan bo’lsa, hozirgi kunda internet tarmog’i va mobil ilovalar bu jarayonni tezkor, interaktiv va ko’p formatli shaklga keltirdi. Shu bilan birga, har bir virtual muloqot janri o’ziga xos nutqiy vositalar, leksik va stilistik xususiyatlar bilan ajralib turadi. Masalan, matnli chatlarda qisqa, tezkor va kontekstga bog’langan ifodalar ustun bo’lsa, audio va video muloqotlarda intonatsiya, mimika va jismoniy harakatlar orqali noverbal muloqot vositalari faol qo’llaniladi.

Shuningdek, virtual muloqot interfaol va multimediya xarakterga ega bo’lib, matn, audio, video, emodji va stikerlar orqali boyitilgan kommunikativ imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu esa nutqiy janrlarning funksional boyligini oshiradi va tilning yangi ijtimoiy vazifalarini yuzaga keltiradi. Muhokama shuni ko’rsatadiki, virtual muloqot jarayoni nafaqat texnologik vositalar bilan bog’liq, balki ijtimoiy va madaniy kontekstga ham moslashgan bo’lishi lozim.

Virtual muloqotning ilmiy, pedagogik va amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo’ladi:

1. **Lingvistik rivojlanish** – nutqiy janrlar tarkibi va shakllanishi tilning yangi leksik, grammatik va stilistik xususiyatlarini yuzaga chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Бахтин М. М. Речевые жанры и другие поздние работы. – М.: Наука, 1986. – 504 с.
2. Халилова Р. Виртуал нутқий мулоқотнинг ўзига хос тамойиллари // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – 2022. – №12. – Б. 123–128.
3. Жичкина А. Е. Социально-психологические аспекты общения в Интернете [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://floqiston.ru/projects/articles/strategy.shtm> (дата обращения: 15.01.2026).
4. Crystal D. Language and the Internet. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 304 p.

2. **Ijtimoiy kommunikatsiya** – odamlar o’rtasidagi interaktiv aloqani kengaytiradi, masofaviy ishlash va onlayn hamkorlik imkonini yaratadi.

3. **Pedagogik imkoniyatlar** – onlayn darslar, vebinarlar va virtual jamoalarda interaktiv va muammoli topshiriqlar orqali nutqiy janrlarni o’rganish samarali bo’ladi.

4. **Texnologik moslashuv** – botlar va sun’iy intellekt yordamida avtomatlashgan muloqot shakllari kommunikativ jarayonni yanada tezkor va qulay qiladi.

Shu jihatdan qaraganda, virtual muloqot va nutqiy janrlarni o’rganish zamonaviy tilshunoslik, kommunikatsiya va pedagogika sohalarini uchun dolzarb ilmiy yo’nalish hisoblanadi. Muhokama shuni ham ko’rsatadiki, virtual muloqotning ijtimoiy, madaniy va texnologik shart-sharoitlari nutqiy janrlarning shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o’ynaydi.

Virtual muloqot nafaqat an’anaviy kommunikatsiya vositalarini almashtiradi, balki yangi nutqiy janrlarni yuzaga keltirib, tilning funksional boyligini oshiradi. Masalan, onlayn ta’lim va vebinarlar o’quv jarayoni kontekstida ma’ruza, savol-javob, interaktiv topshiriqlar kabi o’ziga xos nutqiy janrlarni shakllantiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar va forumlar ilmiy, madaniy va ijtimoiy mavzularda nutqiy diskurslar yaratadi, foydalanuvchilarning kommunikativ ehtiyojlariga moslashtirilgan maxsus til va uslubiy vositalardan foydalanadi.

Virtual muloqotning rivoji nafaqat texnologik jarayon, balki nutqiy janrlar va kommunikativ strategiyalarni boyituvchi ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida qaraladi.

Xulosa. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ayniqsa internet va mobil aloqa vositalarining ommalashuvi natijasida virtual muloqot deb ataluvchi yangi, o’ziga xos shakldagi muloqot maydonlari paydo bo’ldi. Bu muloqot turidagi janrlar va ularning lingvistik-uslubiy xususiyatlari zamonaviy tilshunoslik uchun muhim tadqiqot yo’nalishiga aylandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet va mobil qurilmalarning ommalashuvi zamonaviy jamiyatda yangi nutqiy janrlarni shakllantirdi. Virtual muloqot nutqiy jarayonlarni tezkor, interaktiv va multimediya asosida amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, har bir virtual janr o’ziga xos verbal va noverbal vositalar, leksika va uslubiy xususiyatlarga ega bo’lib, zamonaviy tilshunoslik va kommunikatsiya tadqiqotlari uchun muhim obyekt hisoblanadi. Virtual muloqotning rivoji nafaqat ijtimoiy aloqalarni kengaytiradi, balki tilning funksional boyligini oshiradi, yangi kommunikativ strategiyalar va nutqiy shakllarning yuzaga kelishiga imkon yaratadi. Bu esa lingvistik, pedagogik va sotsiokultural nuqtai nazardan nutqiy janrlar tadqiqotini dolzarb va zaruriy yo’nalish sifatida belgilaydi.

5. Mahmudov N. Til va muloqot masalalari. – Toshkent: O’zbekiston, 2019. – 240 b.

6. Safarov Sh. Diskurs va nutqiy faoliyat. – Toshkent: Fan, 2018. – 212 b.

7. Нурмонов А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 2016. – 368 б.

8. Барласов А. А. Интернет-коммуникация как объект лингвистического исследования // Вестник МГУ. Серия 9: Филология. – 2015. – №3. – С. 45–58.